

O‘zbekiston

Metama'lumot

Alohida turdagi mahsulotlarning o‘rtacha, minimal va maksimal narxlarini hisoblash

Ishlab chiqilgan sana: 01.06.2021 yil

Oxirgi yangilangan sana: 23.09.2021 yil

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma‘muriy ma‘lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul, shuningdek ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma‘lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma‘lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma‘lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma‘lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud

muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiylikini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Iste'mol bozoridagi narxlar darajasini aniqlash uchun ayrim turdagi mahsulotlarning narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha Markaziy apparatda 3 nafar xodim, kuzatuvga tushgan hududiy shahar va tuman statistika bo'limlarida 1 tadan xodim, hududiy statistika boshqarmalarining narx statistikasi bo'limlarida 1-2 nafar xodimlar shug'ullanadi.

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xodimlar soni yetarli darajada.

Barcha hodimlar oliy ma'lumotga ega bo'lib, har 2 yilda kamida 1 marta Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti o'quv kurslarida o'z malakalarini oshiradilar.

Har bir ish o'rni lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Dasturiy ta'minotlar bevosita Davlat statistika qo'mitasining o'zida ishlab chiqilgan bo'lib, zarurat tug'ilganda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarni bajarishda dasturiy ta'minotni yangilash va unga qo'shimchalar kiritish imkoni beradi

Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan Iste'mol narxlari statistikasiga oid vazifalarni amalga oshirishda ajratilayotgan moddiy resurlar yetarli darajada.

Elektron hisoblash resurslarni himoyalash yetarli darajada ta'minlangan.

1. Beg'arazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy printsiplari, jumladan beg'arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Mazkur statistik ma'lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmagan va kasbiy mustaqillik to'liq ta'minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e'tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o'quv kurslari, o'quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta'minlash orqali ta'minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o'quv kurslarida ma'ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e'lon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy

statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy printsiplari tushunarlik va shaffoflik. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistika ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yori

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yori bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsipligiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Narxlar kuzatuvlari va ularning minimal, maksimal va o'rtacha darajalarini aniqlash "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy statistika organlarining hodimlari uchun qo'llanma" (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 31- martdagi 7-son qarori bilan tasdiqlangan) hamda "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizom" (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 31- martdagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan) asosida amalga oshiriladi.

Uslubiy nizom qoidalari statistika ishlari dasturiga muvofiq, davlat statistika organlari tomonidan o'tkaziladigan quyidagi narxlar kuzatuvlariga tadbiq etiladi:

do'konlardagi o'rtacha narxlar kuzatuvlari;

dehqon bozorlaridagi o'rtacha narxlar kuzatuvlari;

viloyat markaziy hududlari kesimida, tayyor palovning o'rtacha narxlar kuzatuvlari;

uyushgan savdo majmualari va dehqon bozorlarida ayrim (un, non, bug'doy) mahsulotlarining o'rtacha minimal va maksimal narxlari kuzatuvi.

Narxlar darajasini hisoblash tizimi quyidagi asosiy tushunchalarni nazarda tutadi:

o'rtacha narx – ma'lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlar guruhidagi narxlarning o'zgarishini umumlashtiruvchi narx;

minimal narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir pul birligida ifodalangan tovar qiymatining minimal ifodasi;

maksimal narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir pul birligida ifodalangan tovar qiymatining maksimal ifodasi;

o'rtacha minimal narx – ma'lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlarning iste'mol uchun taklif etilayotgan eng past darajadagi narxlarni umumlashtiruvchi o'rtacha kattalik;

o'rtacha maksimal narx – ma'lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlarning iste'mol uchun taklif etilayotgan eng yuqori darajadagi narxlarni umumlashtiruvchi o'rtacha kattalik.

Tovarlarning o'rtacha narxlari turli xil assortiment o'zgarishlarini, shuningdek, hududiy, mavsumiy o'zgarishlar va boshqa omillarni hisobga olgan holda shakllanadi. Shunday qilib, tovarlarning o'rtacha narxlaridagi o'zgarishlar uning iqtisodiy tarkibida alohida o'ringa ega tovarlar uchun hisoblangan narx indekslaridan farqi shundaki, avvalo tovarlarning aniq narxlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish bilan birga, uning tarkibiy hamda assortiment o'zgarishlari ham inobatga olinadi.

Tarkibiy va assortiment o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi muhim omillar quyidagilardan iborat: yangi turdagi tovarlarning paydo bo'lishi;

eskilarining yo'qolishi;

turlicha bo'lgan alohida turdagi tovarlarning narx darajalari ulushining o'zgarishi;

mintaqadagi o'zgarishlar natijasida hududiy narxlar orasidagi farqlanishlar, mavsumiy omillar va hokazo.

Shunga ko'ra, o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlardan doimiy ravishda narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

2.2 Statistika qamrov

2.2.1 Statistika qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Geografik qamrov:

Dehqon bozorlaridagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar dehqon bozorlari faoliyat yuritadigan respublikaning barcha shahar va tumanlaridan to'planadi.

Do'konlardagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar respublikaning barcha tuman va shaharlaridan to'planadi.

Tayyor palov narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar Nukus shahri, Toshkent shahri va viloyatlarning ma'muriy markazlaridan yig'ladi.

Tovarlarning qamrovi:

Narxlar kuzatuvlarini o'tkazish uchun Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ma'lumotlarning asosiy foydalanuvchilari ehtiyojlarini va hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini tahlil qilish asosida tovarlarning tanlanma ro'yxati shakllantiriladi. Ushbu ro'yxat doimiy ravishda statistika

ishlarini moliyalashtirish doirasida statistik ma'lumotlar foydalanuvchilaridan kelib tushgan takliflarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi.

Savdo obyektlari tanlovi:

Dehqon bozorlaridagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar har chorshanba kuni barcha yirik dehqon bozorlaridan to'planadi.

Do'konlardagi narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar har seshanba kuni respublikaning barcha shahar va tumanlaridagi tanlab olingan savdo ob'ektlari doirasida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tayyor palov narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar har oyning 22-kuni tanlab olingan palov sotadigan umumiy ovqatlanish korxonalarida (palov markazlari) yig'iladi.

Minimal va maksimal narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar barqaror ta'minot, tovarlarning assortimenti va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda tanlangan chakana savdo ob'ektlari doirasida shakllanadi. Tanlanmaga kiritilgan bozorlarning ro'yxati ushbu ma'lumotlar e'lon qilinganda alohida ilovaga muvofiq taqdim etiladi.

Kuzatuv ob'ektlarini tanlash va ro'yxatini shakllantirish hududiy statistika organlarining narxlarni ro'yxatga oluvchi xodimlari tomonidan savdo obyektining hududdagi aholining keng qatlamiga xizmat ko'rsatishini, shuningdek, tovarlar ro'yxatiga muvofiq mahsulotlar narxlarini barqaror kuzatish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kuzatuv ob'ektlarining soni va turlari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati va savdo faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab o'zgaradi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Tovarlar qamrovi: ishlatilgan mahsulotlar, o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar, muddati o'tgan yoki har xil turdagi nuqsonlari bo'lgan mahsulotlar narxlari hisobga olinmaydi.

Savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari qamrovi: narxlarni kuzatish uchun tanlanmaga narxi o'xshash tovarlarning o'rtacha narx darajasidan ancha yuqori bo'lgan eksklyuziv tovarlarni sotadigan savdo obyektlari turlari kirmaydi. Bunday ob'ektlar, agar ularda sotiladigan tovarlarni aholining katta qismi sotib oladigan va barqaror talabga ega deb taxmin qilish uchun asos bo'lsa, istisno hollarda namunaga kiritilishi mumkin. Tayyor palov narxlarini ro'yxatga olishda restoranlar va choyxonalar tanlanmaga kiritilmaydi.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlangan noqonuniy mahsulotlar savdosi hisobga olinmaydi.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Narxlarni kuzatib borish uchun Davlat statistika qo'mitasi tomonidan markazlashgan holda asosiy ma'lumotlardan foydalanuvchilar ehtiyojlarini tahlili asosida tovarlarning tanlanma ro'yxati shakllantiriladi. Ro'yxat statistika ishlarini moliyalashtirish doirasida statistik ma'lumotlar foydalanuvchilaridan kelib tushgan takliflarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

Xaridorlarga aytiladigan narxlar ro'yxatga olinadigan narxlar hisoblanadi va barcha foyda va soliqlarni o'z ichiga oladi, ya'ni xaridor tomonidan tovar uchun to'langan narx ro'yxatga olinadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Tovarlarning narxi ularni amalda sotib olish davomida qayd etiladi va iste'molchi tovarlarni sotib olish uchun barcha soliqlar va yig'implarni o'z ichiga olgan pul miqdorini aks ettiradi.

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

--

3. Aniqlilik va ishonchlilik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Narxlarni kuzatish uchun savdo ob'ektlarini tanlash sotilgan mahsulotlar turlariga muvofiq maqsadli tanlab olish tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Namuna bo'yicha ma'lumotlar savdo ob'ektlarining nomlarini, rekvizitlari va manzillarini, sotiladigan mahsulotlar turlarini (asosiy ixtisoslashtirish) o'z ichiga oladi.

Narxlarni yig'ish usullari: tovarlarning aksariyat qismi planshet qurilmalari va maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot yordamida savdo ob'ektlariga shaxsiy tashriflar paytida yig'iladi. Istisno holatlarda (masalan, karantin cheklovlari) narxlarni ro'yxatdan o'tkazish telefon orqali o'tkazilgan so'rovnoma yoki rasmiy veb-saytlarning ma'lumotlari asosida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu holatda so'rovnomalarni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisining 2020 yil 13 apreldagi 24-sonli "Tovarlar va xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha narxlar kuzatuvlarini telefon so'rovnomalari asosida (veb / onlayn savdo) o'tkazish bo'yicha vaqtinchalik tartibni tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'i bilan tartibga solinadi.

Mahsulot xususiyatlari: narxlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar narxlari ro'yxatga olinadigan eng keng tarqalgan mahsulotlarning tegishli assortimentini tanlashi va tavsiflashlari, zarur hollarda, almashtirish uchun mahsulot tanlash erkinligiga ega bo'lishlari kerak.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Narxlarni kuzatish davriyligi ma'lumotlarni e'lon qilish uchun yetarlidir.

Hududiy qamrov hamda tanlanma kuzatuv ob'ektlari umumiy hisobda talablarga to'liq javob beradi.

Asosiy ma'lumotlar hisobga olish davri bilan muvofiqlashtiriladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar davlat statistika organlari xodimlari tomonidan bevosita ushbu tovarlarning sotilish joylarida to'planadi. Asosiy ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etiladi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Narxlar o'zgarishi, noto'g'ri tasniflash va ekstremal belgilar to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy tarzda tekshirib boriladi. Narxlar to'g'risidagi barcha noodatiy ma'lumotlarda, shuningdek, ushbu ma'lumotlarda yuz bergan tub o'zgarish sabablari avvalgi davrlardagi ko'rsatkichlar bilan aniqlashtirilgan holda tekshiriladi.

Ro'yxatdan o'tgan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar hududlar o'rtasida, shuningdek boshqa manbalar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi (masalan, INI hisoblash uchun ro'yxatdan o'tgan narxlar), narx tendentsiyalari dinamikasiga muvofiqligi tahlil qilinadi.

3.3 Statistika usullari

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari

Yo'qolgan narxlarni aks ettirish: narxlari to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lmagan tovarlar uchun (masalan, mavsumiy tovarlar), e'lon qilinadigan yakuniy ma'lumotlarda chiziqcha qo'yiladi. Narxlar darajasini aniqlash bozorda haqiqiy narx holatini aks ettirishni nazarda tutganligi va vaqt qatorlarining davomiyligini ta'minlashni talab qilmasligi sababli hech qanday hisob-kitob qilinmaydi.

Tovarlarni va chakana savdo obyektlarini almashtirish: zarur hollarda (tovarlarning ayrim turlari, toifalari yoki tovarlar savdosining to'liq yoki vaqtincha to'xtatilishi, chakana savdo ob'ektlarining doimiy yoki vaqtincha yopilishi va boshqalar), narxlarni ro'yxatga oluvchilar chakana savdo obyektlari va tovarlarni almashtirishi mumkin. Bu holda taqqoslashni ta'minlash afzalroq, ammo talab qilinmaydi. Sifatida o'zgartirishlar kiritilmagan.

3.3.2 Boshqa statistika jarayonlari

O'rtacha narxlar elektron ma'lumotlar bazasiga asoslangan maxsus ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot yordamida narxlar haqidagi ma'lumotlarni umimlashtirish orqali hisoblanadi.

Hududiy statistika organlari tovarlarning o'rtacha iste'mol narxlarini quyidagi sxema bo'yicha hisoblashadi:

- kuzatuv obyektlari bo'yicha vakil tovarlarning o'rtacha iste'mol narxlarini hisoblash;
- shaharlar va tumanlar kesimida tovarlarning o'rtacha narxlarini hisoblash.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va butun O'zbekiston Respublikasida o'rtacha narxlarni hisoblash Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Chakana savdo ob'ekti, tuman, shahar yoki viloyat bo'yicha o'rtacha narxlarni shakllantirish oddiy o'rtacha arifmetik asosida amalga oshiriladi. Respublika darajasida o'rtacha tortilgan qiymat hududlar bo'yicha o'rtacha narxlardan mamlakatning umumiy tovar aylanmasidagi hududlar aylanmasining ulushidan foydalangan holda hisoblanadi.

Har bir mahsulot bo'yicha minimal va maksimal narxlarni aniqlash avtomatik ravishda elektron ma'lumotlar bazasida amalga oshiriladi. Maxsus ishlab chiqilgan dastur avtomatik ravishda maxsus dasturlashtirilgan platformada qayd etilgan narxlar asosida minimal va maksimal narxlarni aniqlaydi va tegishli jadvallarni shakllantiradi.

Bundan tashqari, hududlar bo'yicha tovarlarning o'rtacha minimal va o'rtacha maksimal narxlari hisoblanadi. O'rtacha minimal va o'rtacha maksimal narxlar hududning barcha minimal va maksimal narxlaridan mos ravishda o'rtacha arifmetik qiymat formulasi yordamida hisoblanadi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Hududlardan olingan ma'lumotlar boshqa hudud ma'lumotlari, shuningdek, boshqa manbaalardan olingan ma'lumotlar bilan ham taqqoslanadi (masalan, respublika hududida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining tovarlari narxlari yoki Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq amalga oshiriladigan narxlar monitoringi ma'lumotlari bilan solishtiriladi).

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi (3.4.1ga qarang). Davlat statistika qo'mitasi zarur hollarda statistik tavofutlarni tekshiradi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Ma'lumotlarni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi (3.4.1ga qarang). Davlat statistika qo'mitasi zarur hollarda statistik tavofutlarni tekshiradi.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Shakllangan minimal, maksimal va o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilmaydi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Narxlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar tasdiqlangan Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq muntazam ravishda shakllantirib boriladi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Narxlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar doimiy ravishda tasdiqlangan Davlat statistika ishlari dasturida (haftalik / oylik) belgilangan muddatlarda tarqatiladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Maksimal, minimal va o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar tasdiqlangan tovar ro'yxatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi va hududlar bo'yicha shakllantiriladi.

Shakllantirilgan jadvallar ma'lumotlari va byulletenlar tasdiqlangan jo'natmalarga muvofiq manfaatdor foydalanuvchilarga yuboriladi.

Foydalanuvchilarni xabardor qilish uchun o'rtacha narxlar bo'yicha yig'ma jadvallar har oy Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi, shuningdek Ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtiriladi.

Hududlar va bozorlar kesimida minimal va maksimal narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar har hafta Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Dehqon bozorlaridagi alohida mahsulotlarning o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarning rasmiy veb-saytga 2019 yildan boshlab oylar bo'yicha dinamikasi joylashtirilgan.

Do'konlardagi alohida tovarlarning o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, dehqon bozorlari va do'konlardagi o'rtacha narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar (to'plam) rasmiy veb-saytda 2021 yil yanvaridan oylar kesimida joylashtirilgan.

Nukus, Toshkent shahri va viloyat markazlarining dehqon bozorlaridagi ayrim tovarlarning minimal va maksimal narxlari to'g'risidagi haftalik ma'lumotlar veb-saytda 2019 yildan boshlab e'lon qilinmoqda.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

Iste'mol bozorida narxlar holatini aniqlash doirasidagi narxlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarning boshqa manbalardan olingan statistik ma'lumotlarga muvofiqligi ta'minlanadi.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Dehqon bozorlarida, shuningdek do'konlarda ayrim tovarlarning o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar jadval shaklida Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Minimal va maksimal narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar jadval shaklida har bir tovar turiga qisqacha izohlar bilan tarqatiladi.

Manfaatdor foydalanuvchilar uchun oldindan kelishilgan holda, narxlar to'g'risidagi bir qator ma'lumotlar byulleten shaklida taqdim etiladi.

Bundan tashqari, alohida batafsil ma'lumotlar Ochiq ma'lumotlar portalidagi <https://data.gov.uz> Ochiq ma'lumotlar portalida mavjud.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Mavjud emas.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

"Uyushgan savdo va bozorlardagi o'rtacha narxlar" oylik byulleteni.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Jadvallar turli formatlarda (shu jumladan pdf, xlsx) Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/prices-and-indexes> mavjud.

Alohida tovarlarning minimal va maksimal narxlari hamda tayyor palov narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida <https://stat.uz> Qo'mita yangiliklari bo'limida joylashtirilgan.

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

--

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

--

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonuni, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi” Nizomi, Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish reglamenti va boshqa normativ xujjatlar asosida foydalanuvchilar so'roviga asosan statistik ma'lumotlar o'rnatilgan tartib asosida taqdim etiladi.

Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga, shuningdek, tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga asosan statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor ma'lumotlar bosma nashr yoki elektron shaklda ham amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konseptsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Iste'mol bozorida narxlar darajasini aniqlash uchun narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va tovarlar narxlarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom <https://lib.stat.uz> veb-saytiga joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

--

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Narxlari kuzatiladigan tovarlar ro'yxati yangilandi. Narxlarni kuzatish uchun tanlangan barcha hududlarda planshet qurilmalaridan foydalangan holda CAPI texnologiyasi joriy qilindi. Takrorlanadigan ko'rsatkichlar yig'ilishini oldini olish uchun ma'lumotlarni yig'ish mexanizmi optimallashtirilgan.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

--

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O‘rta muddatli

--

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Statistika ishlari yillik dasturi doirasida moliyalashtirilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

--

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Umarov Muxtor
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Narxlar statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998-71-202-80-36
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	m.umarov@stat.uz